XALQ DEPUTATLARI OHANGARON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 8 - sentabr VI-60-44-10-214-K/23 Ohangaron shahar hokimligi

Ohangaron shahridagi mavjud geografik obyektni qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 12-iyuldagi 1/12-4-3104-son bayonnomasi va Ohangaron shahar hokimiligining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 6-iyundagi 08-04192-son xati va unga ilova qilingan ekspert komissiyasi xulosasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 12-iyuldagi 1/12-4-3104-son bayonnomasi va Ohangaron shahar hokimiligining Oxunboboyev mahallasi Harbiylar ko‘chasini qayta nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 6-iyundagi Toshkent viloyati hokimi nomiga kiritgan 08-04192-sonli xati va xatga ilova qilingan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan

o‘tkazish ekspert komissiyasining bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan shahardagi mavjud ko‘chani qayta nomlash taklifi **ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi, shahar IIB, shahar Qurilish bo‘limi boshlig‘i, kadastr agentligining shahar bo‘limi, Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali, shahar davlat soliq inspeksiyasi, shahar statistika bo‘limi, shahar moliya bo‘limi shahar davlat xizmatlari markazi va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda yangi nomlangan, qayta nomlangan va o‘zgargan ko‘cha nomini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni ko‘chalar o‘zgarishi munosabati bilan mazkur qarorga muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshirsin.

4. Mazkur qaror “Ohangaron hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin va qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish-kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Akilov) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Xalq deputatlari Ohangaron shahar
Kengashining
2023-yil 8-sentabrdagi
VI-60-44-10-214-K/23-son qaroriga
1-ilova

“Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan shahardagi mavjud ko‘chani qayta nomlash taklifi

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif**	**Izoh**
1	Ko‘cha	Oxunboboyev mahalla	**Harbiylar**	**Yakubov Sultan Nematjanovich**	Shahar Mudofaa bo‘limi joylashgan ko‘cha. Marhum mayor xizmat burchini bajarish vaqtida halok bo‘lgan